

Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 fevral holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsa-tayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **446 taga o'sdi**
 - Faoliyat ko'rsatma-yotgan korxonalarning ulushi **3,9 f.p. ka-maydi**
 - Tugatilgan korxo-nalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **237 taga oshgan.**

2018 yilning yanvar oyida Buning natijasida joriy viloyatimizda 298 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 20 taga ko'pdir. Buning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 446 ta (2,4 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 18679


Shuningdek faoliyatni tuqatilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 14,1 % kamaygan hamda ularning soni 61 tani tashkil etqanligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 446 ta (2,4 %) ga o'sgan hamda ularning umumiyligi soni 18679 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ning asosiy ulushi Qarshi shahrida (21,5 %), Koson (8,8 %), Chiroqchi (7,8 %)va Qarshi (7,5 %) tumanlarida kuzatilmogda.

Shahar va tumanlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(fermer va dehg'on xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



***Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning shahar , tumanlar bo'yicha taqsimlanishi***
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 fevral holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlikda	jamiga nisbatan %	birlikda	jamiga nisbatan %
Qashqadaryo viloyatida	19428	100,0	18679	100,0
Qarshi shahar	4253	21,9	4014	21,5
Shahrisabz shahar	1190	6,1	1185	6,3
tumanlar:				
G'uzor	875	4,5	798	4,2
Dehqonobod	1006	5,2	914	4,9
Qamashi	1291	6,7	1262	6,8
Qarshi	1438	7,4	1410	7,5
Koson	1666	8,6	1645	8,8
Kitob	1348	6,9	1339	7,2
Mirishkor	586	3,0	571	3,1
Muborak	762	3,9	711	3,8
Nishon	647	3,3	610	3,3
Kasbi	704	3,6	650	3,5
Chiroqchi	1504	7,8	1465	7,8
Shahrisabz	888	4,6	859	4,6
Yakkabog'	1270	6,5	1246	6,7


Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da



Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 96,1 % ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulishi 3,9 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 95,2 % ni, faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 4,8 % ni tashkil qiladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari boyicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 23,9 % savdoda, 12,8 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 11,9 % qurulishda, 11,3 % sanoatda, 4,0 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,0 % tashish va saqlash, 2,2 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,2 % axborot va aloqa, 28,7 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'gri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning ulushi savdoda (-1,9 f.p.), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-1,2 f.p. dan) kamayganligi, buning natijasida sanoatda (+0,6 f.p.), qurulishda (+0,5 f.p.), tashish va saqlashda (+0,5 f.p.), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+0,2 f.p.), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (+0,1 f.p.), boshqa faoliyat turlarida (+0,2 f.p.dan) ulushining o'sishiga olib keldi.


Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda

Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.02.2018 y.	01.02.2017 y.	farqi (+-)
Savdo	23,9	25,8	-1,9
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2,2	3,4	-1,2
Axborot va aloqa	1,2	1,1	0,1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4,0	3,9	0,1
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	12,8	12,7	0,2
Qurilish	11,9	11,4	0,5
Tashish va saqlash	4,0	3,4	0,5
Sanoat	11,3	10,7	0,6
Boshqa turlari	28,7	27,6	1,2

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


2018 yil 1 fevral holatiga faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 55 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 8 taga yoki 17,0 % ga o'sgan.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Qarshi shahar 23 ta (41,8 %), Kitob 7 ta (12,7 %) va Qarshi 4 ta (7,3 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Dehqonobod, Koson, Chiroqchi, Yakkabog' tumanlari 1 ta (1,8 %) hissalariga tog'ri keladi. Mirishkor tumanida tashkil etilmagan, bu esa mazkur tumanlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning shahar va tumanlar kesimidagi soni, birlikda




Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 fevral holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 37 ta (67,3 %), savdoda 9 ta (16,4 %), boshqa turlarida esa 2 ta (3,6 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 3 ta (5,5 %), qurilishda 2 ta (3,6 %), tashish va saqlashda 1 ta (1,8 %), axborot va aloqada 1 ta (1,8 %), tashkil qilgan. Shundan ko'rinish turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelmoqda. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'lqnini saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da




2018 yil 1 fevral holatiga viloyatimizda faoliyat ko`rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 14506 tani tashkil qilgan. Bu ko`rsatkich 2017 yil 1 fevral holatiga qaraganda 3,6 %ga oshgan. Faoliyat ko`rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 3273 tasi (22,6 %) Qarshi shahriga, 1322 tasi (9,1 %) Koson, 1164 tasi (8,0 %) Qarshi ,1101 tasi (7,6 foizi) Chiroqchi hamda 1032 tasi (7,1 foizi) Kitob tumanlari hissalariga to'gri keladi.

Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi, ming birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 14506 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 4440 tasi (30,6 %) – savdoda, 2364 tasi (16,3 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 2206 tasi (15,2 %) - qurilishda, 2061 tasi (14,2 %) - sanoatda, 743 tasi (5,1 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 721 tasi (5,0 %) - tashish va saqlashda, 277 tasi (1,9 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 220 tasi (1,5 %) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 1474 tasi (10,2%) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinish turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da




2018 yil 1 fevral holatiga bilan 229 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda –14,9 foizga kamaygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Qarshi shahrida (49 ta), Chiroqchi (23 ta), Kitob (16 ta) va Shahrisabz tumanlari (15 ta) tashkil etilgan. Eng kam Mirishkor (6 ta), G'uzor (7 ta) hamda Yakkabog' (7 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (51 ta), savdoda (48 ta), qurilishda (45 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (41 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa tashish va saqlashda (6 ta) va axborot va aloqada (5 ta) tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da

- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Tashish va saqlash
- Axborot va aloqa
- Sog'lqn ni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish
- Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Qurilish
- Savdo
- Sanaot
- Boshqa turlar



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yhatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 fevral holatiga 550 tani tashkil etib, ulardan 530 tasi yoki 96,4 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni **28,5**%ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 27,0 % yoki 143 tasi sanoat, 19,1 % yoki 101 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 18,3 % yoki 97 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 17,0 % yoki 90 tasi savdo, 2,6 % yoki 14 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish, 1,9 % yoki 10 tasi qurilish, 1,7 % yoki 9 tasi tashish va saqlash, 0,4 % yoki 2 tasi axborot va aloqa hamda 12,1 % yoki 64 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi

Statistik registrlarni yuritish bo'limi boshlig'i

Nashr uchun mas'ul: **T.Karayev**

(0371) 230-84-10

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat

registri (KTYaDR) ma'lumotlari asosida

tayyorlangan